

Xulosa qilib aytganda, Amiriy kutubxonasi Qo‘qon shahrining muhim ma‘naviy-ma‘rifiy maskanlaridan biri hisoblanadi. Ushbu kutubxona ilm-fan, adabiyot va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda muhim o‘rin tutib, yosh avlodning ma‘naviy kamolotiga xizmat qilmoqda. Kutubxonaning boy fondi, ma‘rifiy faoliyati va zamonaviy rivojlanish yo‘li uning bugungi jamiyat hayotidagi ahamiyatini yanada oshirmoqda. Shu bois Amiriy kutubxonasi xalqimizning madaniy merosini asrash va kelajak avlodga yetkazishda muhim ilmiy-ma‘naviy markaz sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O.Topildiyev. Kutubxonashunoslik. – Namangan, 2021
2. <https://uza.uz/posts/409770>
3. <https://qoqon.uz/oz/qoqon-shahrida-amiriy-kutubxonasi-foydalanishga-topshirildi/>
4. <https://aoka.uz/news/1311>

O‘RTA OSIYO MINTAQASINING BRITANIYA-ROSSIYA MUNOSABATLARIDAGI O‘RNI XORIJIY TARIXCHILAR TADQIQOTLARIDA

*Rayimov Farhod Ulug‘bekovich
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
“Jahon tarixi” kafedrasi o‘qituvchisi
farhodrayimov831@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr va XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda Britaniya va Rossiya imperiyalari o‘rtasida kechgan geosiyosiy raqobat va uning oqibatlarini to‘g‘risida yozilgan asarlar tahlil qilingan. Mazkur maqolada nafaqat, O‘rta Osiyo balki, unga tutash bo‘lgan Afg‘oniston, Eron va Hindiston kabi hududlar uchun ikki imperiya o‘rtasida o‘z ta‘sir doiralarni kengaytirishga harakat qilganligi ham mazkur asarlarda o‘z aksini topganligi keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: O‘rta Osiyo, Levai Skott, Eron, Britaniya, Afg‘oniston, “Golos”, Buxoro, Genri Roulinson, Marv, “Turkiston to‘plami”, Aleksandr Morrison, Amiton-Shapiro, Qulja, Vasiliy Bartold, Xiva, Rossiya.

Аннотация. В данной статье анализируются работы, посвященные геополитической конкуренции между Британской и Российской империями в Центральной Азии в XIX и начале XX веков и ее последствиям. В статье

освещаются попытки обеих империй расширить свои сферы влияния не только в Центральной Азии, но и на прилегающих территориях, таких как Афганистан, Иран и Индия.

Ключевые слова: Центральная Азия, Леви Скотт, Иран, Великобритания, Афганистан, «Голос», Бухара, Генри Роулинсон, Мерв, «Туркестанская коллекция», Александр Моррисон, Амитон-Шапиро, Кулья, Василий Бартольд, Хива, Россия.

Abstract. This article analyzes works devoted to the geopolitical competition between the British and Russian empires in Central Asia in the 19th and early 20th centuries and its consequences. The article highlights the attempts of both empires to expand their spheres of influence not only in Central Asia but also in adjacent territories such as Afghanistan, Iran, and India.

Keywords: Central Asia, Levi Scott, Iran, Great Britain, Afghanistan, “The Voice”, Bukhara, Henry Rawlinson, Merv, “Turkestan Collection”, Alexander Morrison, Amiton-Shapiro, Kulya, Vasily Bartold, Khiva, Russia.

Kirish. XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib, O‘rta Osiyo mintaqasi, jahon miqyosida kechayotgan boy xomashyo resurslari uchun kurash jarayonidagi mintaqaning tutgan geosiyosiy o‘rni, mintaqqa xalqlarining etnografiyasi hamda madaniy jarayonlari bir qator xorijiy mamlakatlarda tadqiq qilina boshlandi. Aynan mana shu masalalar “Голос” gazetasida qayd etib o‘tilgan. Mazkur gazetaning joriy qismlari “Turkiston to‘plami”da aks etgan bo‘lib, unda Genri Roulinson(Henry Rawlinson, 1810–1895) - britaniyalik diplomat, harbiy arbob va mashhur sharqshunos olimning fikrlari haqida ma‘lumotlar uchraydi[1]. U Britaniyaning O‘rta Osiyodagi geosiyosiy manfaatlarini himoya qilishga oid fikrlari bilan tanilgan edi. Roulinson tomonidan ko‘tarilgan xavflar, ya‘ni Rossiyaning O‘rta Osiyodagi so‘nggi yutuqlari va Xiva xonligini bosib olinishi natijasida Britaniyaning Hindistondagi mulklariga tahdid solinayotgani haqidagi ogohlantirishlari ayrim ingliz doiralarida deyarli vahima uyg‘otdi. Uning so‘zlaridan qo‘rqanlar orasida ko‘pchilik bu joylarning xaritada qayerda joylashganini ham bilmas edi, chunki bu hududlar odatiy xaritalarda deyarli aks ettirilmagangi bois vahima yanada tez tarqalishi mumkin edi.

Asosiy qism. Ingliz hukmron doiralarining XIX asr o‘rtalarida olib borgan tashqi siyosatdagi faol “o‘yinlari” O‘rta Sharq va O‘rta Osiyoda o‘ta keskin siyosiy vaziyatni yuzaga keltirdi. Jumladan, inglizlar Eronni Buxoro va Afg‘onistonga qarshi gijgijladi. Usmoniy sultoni qo‘li bilan uchta xonlikni Rossiyaga qarshi qo‘yishga harakat qildi. Albatta, bu siyosiy jarayonlarda podsho Rossiyasi ham bu mintaqalarda faol harakatlar olib borishga bor kuch vositalarni foydalanishga harakat qildi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashagan V. Bartold, A. Semyonov, I. Remez, V. Vyatkin, Amiton-Shapiro kabi tadqiqotchilar ishlarida Turkiston o‘lkasida davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotning ajralmas qismi bo‘lgan ma’muriy tartibotlari haqida ma’lumotlar uchraydi[1].

Mazkur tadqiqotlarda o‘lka boshqaruvi masalasining siyosiy va iqtisodiy jihatlarini, ma’muriy apparat vakillarining hukmronligi va boshqa ko‘plab masalalar o‘z ifodasini topgan. Xususan, akademik Vasiliy Vladimirovich Bartold o‘zining ko‘p tomli asarlarida Turkiston o‘lkasi xalqlarining kundalik turmushida rus bosqinidan keyin sodir bo‘lgan o‘zgarishlar, mustamlaka boshqaruv amaliyoti, aholidan olinadigan soliqlar va ularning turkumlari, jarayondagi yillar davomida yuz bergan o‘zgarishlar hamda ularning natijalari, sabab va oqibatlarini haqida qimmatli ma’lumotlar aks ettirgan.

Taniqli rus sharqshunoslaridan yana biri Aleksandr Semyonovning “Buxoro xonligining keyingi davrlardagi markaziy boshqaruvi tuzilishi haqidagi ocherki”da XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro amirligidagi davlat boshqaruvi tuzilmasi Turkiston general-gubernatorligi bilan solishtirib, mustamlaka boshqaruvining umumiy va alohida xususiyatlariga to‘xtalib o‘tadi. A. Savitskiyning asari ham muhim o‘rin tutadi. Mazkur asarda Turkiston o‘lkasida Turkiston general-gubernatorligining asoschisi K. P. Kaufman tomonidan amalga oshirilgan boshqaruv islohotlari, o‘lkada avvaldan mavjud bo‘lgan tartibotlar, shar’iy qonun-qoidalar tahlil qilinganligi diqqatga sazovordir[1].

Asar o‘zining birlamchi manbalarga boy manbashunoslik bazasiga ega ekanligi bilan ham e’tiborni tortadi. Chunki asarni yozish davomida olim Turkiston general-gubernatorligida boshqaruv islohotlarini o‘tkazishga mas’ul qilib belgilangan shaxslarning hisobot hamda yozishmalari, taftish komissiyalarining hujjatlari, 1867, 1886-yillarda o‘lkani boshqarish to‘g‘risida qabul qilingan Nizomlarning agrar siyosatga doir bandlari haqidagi ma’lumotlardan unumli foydalangan.

Taniqli olim A. Morrison Rossiya imperiyasi tomonidan mustamlakaga aylantirilgan Turkiston o‘lkasi, hududdagi iqtisodiy, siyosiy-harbiy va madaniy hayotni o‘z asarlarida yoritib bergan[2]. Levai Skott esa XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasining umumiy ahvoli, hududdagi imperialistik boshqaruv mohiyatiga oid bir qator asarlar yaratgan[3]. Ingliz olimi Piter Golden esa o‘zining “Dunyo tarixida Markaziy Osiyoning o‘rni” nomli asarida savdo-iqtisodiy va mustamlaka boshqaruvi munosabatlariga oid ma’lumotlarni keltirib o‘tadi.

Yana bir mashhur olim Georg Natanil Kerzon tomonidan yozilgan “1889-yilda O‘rta Osiyoda Rossiya va Angliya-Rossiya muammosi” (**“Russia in Central Asia in 1889 & the Anglo-Russian Question**, London, Longmans, Green, and Co., 1889”) asari bo‘lib, unda lord Kerzon Rossiyaning O‘rta Osiyodagi ekspansiyasi,

shuningdek, Buyuk Britaniya Hindistoni xavfsizligiga tahdidi haqida atroflicha yozadi[4]. Uning fikrlari Britaniya rasmiy siyosatining shakllanishiga ta’sir qilgan. Shu kabi navbatdagi adabiyot Genri Lansdellning “Rossiyaning O‘rta Osiyosi: Qulja, Buxoro, Xiva va Marvni o‘z ichiga olgan” asari bo‘lib (“Russian Central Asia: Including Kuldja, Bokhara, Khiva and Merv” (1885)) ushbu asar orqali muallif Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyodagi mustamlakachilik siyosatini tahlil qiladi va Go‘lja, Xiva, Buxoro kabi markazlardagi harbiy-siyosiy sharoitni yoritadi[5].

Yana bir adabiyotlardan biri Jon Vudning Amudaryoning manbai sari sayohat (“Journey to the Source of the Oxus”) (1841) asari edi. Vud Amudaryoning manbaini topish uchun qilgan ekspeditsiyasi davomida tog‘li hududlar, tabiat va siyosiy vaziyat haqida to‘plagan ma’lumotlarini taqdim etadi[6]. Asar geografik va harbiy razvedka nuqtayi nazaridan muhim manbadir.

Mazkur davrni yoritishda davriy matbuot nashrlaridan o‘rin olgan ma’lumotlar, gazeta, jurnallardagi maqolalar va xabarnomalar ham qimmatli manba hisoblanadi. Xususan, “Туркестанские ведомости” gazetasining 1870-yil 1-avgustdagi sonida “Norasmiy bo‘lim (Неофициальный отдел)” sarlavhasi ostida maqola e’lon qilingan bo‘lib, unda rasmiy London tomonidan yollangan turli ekspeditsiyalarning Hindiston va O‘rta Osiyo hududlaridagi faoliyati, ularning moliyalashtirilishi, safarlardan ko‘zlangan maqsadlar haqida fikr yuritilgan[7]. Maqolada podsho Rossiyasining O‘rta Osiyodagi mavjudligi ingliz hukmron doiralarining Hindistondagi hokimiyati bilan qiyos qilingani xolda, ikki imperiya o‘rtasidagi chegara Amudaryo bo‘ylab o‘tishi, ingliz maxsus xizmat vakillarining O‘rta Osiyoga kirib-chiqishi masalalari qayd etib o‘tilgan.

Xulosa qilib aytganda O‘rta Osiyoda podsho Rossiyasi va ingliz hukumron doirasi vakillari o‘rtasida kechgan o‘zaro raqobat xorij tarixchilari tomonidan yozilgan asarlarda keng yoritishgan bo‘lib, bu raqobat ikki yirik imperiyaning manfaatlari to‘qnashuvi natijasida yuzaga kelgan va XIX–XX asr boshlaridagi xalqaro munosabatlarning muhim qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati.

1. Бартолд В.В. История культурной жизни Туркистана. -Ленинград: Изд. Ак. Наук СССР, 1927; Семёнов Очерк устройства центрального административного управления Бухарского ханства позднейшего времени / материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии. -Москва, 1954; Ремез И.А. Внешняя торговля Бухары до мировой войны. -Ташкент, 1922
2. Morrison A.S. The Russian Conquest of Central Asia. A Study in Imperial Expansion, 1814–1914. England:Cambridge University Press, 2020. – 164 p.

3. Levi C. Scott. Central Asia in the Global Age. -USA: University of Pittsburgh Press, 2017.– 351 p.
4. George Nathaniel Curzon. **Russia in Central Asia in 1889 & the Anglo-Russian Question**, United Kingdom, London, Longmans, Green & Co., 1889, p. 47.
5. Генри Ланселл, Russian Central Asia: Including Kuldja, Bokhara, Khiva and Merv, London, 1885. 88–104.
6. Жон Вуд, A Journey to the Source of the River Oxus, London, 1841. Саҳ. 60–85.
7. Отдель неофициальный. Туркестанские ведомости. 1870 йил 1 август

ЖИЗЗАХ ВИЛОЯТИДА КИЧИК БИЗНЕС КОРХОНАЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА ФАОЛИЯТИ (1991-2016 ЙИЛЛАР)

Т.ф.д., проф. С.Б.Шадманова

Тошкент давлат шарқшунослик университети

Бозор иқтисодиёти шароитида аҳолини истеъмол молларига бўлган эҳтиёжини қондиришда, уларга пуллик хизмат кўрсатишда кичик корхоналар ва ширкатлар алоҳида аҳамият касб этади. 1993 йилда Жиззах вилоятида шаҳар ва туман ҳокимиятлари томонидан рўйхатдан ўтказилган 903 та кичик корхоналар ва ширкатлардан 559 таси ёки 62 фоизи фаолият кўрсатган. Натижада 10 мингдан ортиқ кишилар ижтимоий фойдали меҳнатга жалб этилган. Ҳаракатдаги кичик корхоналардан 87 таси истеъмол моллари ишлаб чиқаришга, 74 таси қишлоқ хўжалик маҳсулотларини ишлаб чиқаришга, 215 таси қурилиш ашёлари ишлаб чиқаришга, 5 таси савдо тижорат ишлари билан, 53 таси аҳолига пуллик хизмат кўрсатишга, қолган 138 таси бошқа хилдаги фаолият кўрсатишга ихтисослашган эди. 1993 йилда улар томонидан 957 миллион сўмлик маҳсулот ишлаб чиқарилди ва хизмат кўрсатилди ҳамда